

XAYR MAKTAB, SALOM KOLLEJ!

Vatanyagonadir,
Vatan bittadir!

N:21 (67030)
2015-yil
25-may

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

*Barkamol farzand bo'lib -
sog'lom, bilimdon,
Iste'dod, zehningga
tan bersin jahon!*



- Mehribon ustozlar, sizlardan bir umr qarzidormiz. Kelajakda siz orzu qilgan o'g'il-qizlar bo'lib yetishamiz. Mudom poyingizda ta'zimdamiz!

- deyishadi Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi bitiruvchisi, rus tili fani bo'yicha fan olimpiadasi viloyat bosqichi 1-o'rin sohibi Elbek NORMURODOV va mazkur fan bo'yicha «Bilimlar bellashuvi» tuman bosqichi g'olibi, 5-sinf o'quvchisi Sevara MAJIDOVA.

BIZNES G'OYA **MUALLIFLARIGA MOLIYAVIY** **IMKONIYATLAR BERILDI**

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi «Kamolot» yoshlar oromgohi»da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari o'rtasida «Mening biznes g'oyam» respublika tanlovi bo'lib o'tdi.

(Davomi 2-betda)



XAYR MAKTAB, SALOM KOLLEJ!

Bugun respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarida «Xayr maktab, salom kollej!» tadbirlari, «Zamonaviy bilimlar bilan zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lamiz» shiori ostida ko'tarinki ruhda tashkil etildi.

bo'lasiz. Biz bunga ishonamiz. Chunki o'zingizga bo'lgan ishonch eng katta yutug'ingizdir, aslida.

Darvoqe, ishonch iroda va jasoratga yo'l boshlovchidir. Hayot zavqi-yu insonning ulug'vorligi ham shunda.

Aziz bitiruvchilar!

Tadbir davomida ko'nglingizdan tiniq fikrlar, ulkan orzular, beg'ubor tilaklar o'tgani, shubhasiz.

Ko'zlaringiz shodlikdan yoshga to'lgani ham rost. Sababi, sizga bor mehr-muhabbatini berib, jajji qo'lchalarigizdan tutib, ma'rifat dunyosiga yetaklagan ustoz-murabbiylaringiz, uyingizdek qadrdon bo'lib qolgan maktabingiz bilan xayrlashyapsiz. Hatto jaranglayotgan qo'ng'iroq ham o'z bag'rida asrab-avaylagan siz o'g'il-qizlarni bugun mustaqil hayot sari katta ishonch bilan qanot qoqishingizni istab shoshayotgandek, go'yo.

Balki o'tgan yillar mobaynida ustozlaringiz qadrini ko'pam bilmagandirsiz, sezmagandirsiz?.. Ayni damda esa ustozingiz mehridan yaralgan, yuragingizga o'y solayotgan bu tuyg'uning naqadar hayajonli, quvonchli va qadrli ekanligini izohlashga o'zimiz. Faqat bir narsani ishonch bilan aytishimiz mumkin. Davlatimiz, ustozlaringiz ko'z qorachig'idek asragan siz, o'g'il-qiz bitiruvchilar kelajakda o'z o'ringizni topasiz va yurtimizga munosib farzandlar



Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi 12-umumta'lim maktabining 9-sinf bitiruvchilari davlat imtihonlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Yaqinda «Kitob bizni birlashtiradi» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida hay'at a'zosi sifatida ishtirok etdim. Sizning bilimdonligingiz, zukkolingiz va hozirjavobligingizga bir hayratim oshgan bo'lsa, o'zingizga bo'lgan ishonchni ko'rib, hayratim ikki oshdi. Tanlovda tengdoshingiz, to'g'rirog'i raqibingizning yutuqlaridan sevinishingizni ko'rib, uch karra hayratim oshdi. Bugun yurtimizda ana shunday sog'lom fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli, iqboli baland, hech kimdan kam bo'lmagan, hamisha boshini baland ko'tarib yashaydigan barkamol avlod voyaga yetayпти.

Qadri bitiruvchilar! Sizni yangi manzil tomon kuzatar ekanmiz, nurlil kelajak yor bo'lishini istab qolamiz.

Feruz SOYIBJON qizi

2014–2015-o'quv yili davomida umumta'lim maktablarining 9-sinfni tugatayotgan 483 ming nafar o'quvchilar bilan so'rovnoma o'tkazilganda, bitiruvchilarning 42 ming nafari (8,7%) akademik litseylarda, 441 ming nafari (91,3%) esa kasb-hunar kollejlarda o'qish niyatida ekanligini bildirgan.

OQ YO'L, BITIRUVCHI!

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 3-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatida ham «Xayr maktab, salom kollej» tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda tuman hokimligi, ichki ishlar vakillari hamda tuman XTMFMT va TE bo'limi xodimlari ishtirok etishdi.



Mana, bu kun 110 nafar yigit-qiz maktabni bitirish arafasida. Yangi hayot bo'sag'asida turgan bitiruvchilar uchirma palapon kabi yangi manzil tomon oshiqadilar.

– Bolaligimiz kechgan maskan bilan xayrlashish oson kechmaydi. Yangi ta'lim maskaniga yo'l olayotganimdan behad mamnunman, – deydi 9-sinf bitiruvchisi Saidahmad Akramjonov. – Zamonaviy kollejlarda va akademik litseylar

bizni o'z bag'riga chorlamoqda. Maktabda ustozlardan olgan bilimimni ta'limning keyingi bosqichida boyitib boraman.

So'nggi qo'ng'iroqqa bag'ishlangan tadbir juda quvnoq va esda qolarli tarzda o'tdi. Bitiruvchilar tomonidan tayyorlangan dastur kechaga o'zgacha zavq bag'ishladi.

F. ABDUSAMAD qizi

BIZNES G'OYA

MUALLIFLARIGA MOLIYAVIY IMKONIYATLAR BERILDI

(Davomi. Boshi 1-betda)

Bitiruvchilarni kasbga yo'naltirish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mazkur tanlovda mamlakatimiz ta'lim muassasalaridan 156 mingdan ziyod bitiruvchilar ishtirok etishdi.

Tanlovning hududiy bosqichlarida mutaxassislar tomonidan tadbirkorlikning aholiga xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, bog'dorchilik, kichik ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha seminar-treninglar tashkil etildi. Seminarda biznes rejalarini samarali deb topilgan 353 nafar ishtirokchining biznes g'oyalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan 3,5 mlrd. so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar olish huquqini beruvchi tavsiyanomalar berildi.

«Yoshlar ijod saroyi» binosida bo'lib o'tgan tatanada tanlovning respublika bosqichida ishtirok etgan 140 nafar bitiruvchilardan 28 nafari g'olib deb topildi.

«Mikrokredit» ATB tomonidan Pop qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji bitiruvchisi Mohinur Tursunovaga qishloq joylarda tikuvchilik sexini tashkillashtirish uchun 2 mln. 300 ming so'm, navoiylik Gulbonu Quvvatovanning telpak tikishga oid biznes g'oyasiga 5 mln. 900 ming so'm, «Agro bank» ATB dan xorazmlik Javohir Matyoqubovga muzlatkich ta'mirlaydigan ustaxona g'oyasi uchun 22 mln., poytaxtlik Bahridin Gobovga quyunchilik sohasini rivojlantirish uchun 8 mln. ajratiladigan bo'ldi. Shuningdek, «Ipoteka-bank» ATIB dan Jizzax viloyati vakili Otabek Norqulovga briket ishlab chiqarish uchun 20 mln., andijonlik Shahrizod Musaboyevning bir martalik salfetka mahsulotlari uchun 15 million so'm kredit ajratildi.

G'olib bo'lgan biznes g'oya mualliflariga yaratilgan moliyaviy imkoniyatlar joylarda kasb-hunar kollejlari va akademik litsey bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, kichik biznes va tadbirkorlik, kasanachilikni rivojlantirishga muhim omil bo'lishi, shubhasiz.



HUQUQ BILIMDONLARI ANIQLANDI

Yaqinda Xalq ta'limi vazirligi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va qator tashkilotlar bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Huquq bilimdonlari» respublika tanlovi bo'lib o'tdi. Uch bosqichda tashkillashtirilgan mazkur tanlovda ishtirok etgan 48 695 nafar o'quvchidan 70 nafari yakuniy bosqichda kuch sinashdi.



Ishtirokchi jamoalar qonunchilikning amaldagi ijrosi, huquqshunoslikka oid test sinovlaridan o'tishdi. O'quvchilar tomonidan yoshlar o'rtasida huquqiy savodxonlikning ahamiyati, huquqbuzarlikning salbiy oqibatlarini aks ettirilgan sahna ko'rinishlari soha mutaxassislaridan iborat hay'at a'zolari tomonidan munosib baholandi.

Intellektual bellashuv yakuniga yetdi. Tahlil natijalariga ko'ra, Navoiy viloyatining «Yuksak ma'naviyatli avlod» guruhi birinchi, buxorolik «Adolat» jamoasi ikkinchi, Namangandan tashrif buyurgan «Yosh advokatlari» uchinchi o'rinni egallashdi.

NURBEK QIDIRALIYEV

25-may 2015

«KITOB BIZNI BIRLASHTIRADI»

Poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida umumta'lim maktablari o'quvchilari, Mehbribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ishtirokida o'tkazilgan kitobxonlar festivali ana shunday nomlandi.

Kitob insonning aqli taraqqiyoti va ma'naviy kamolotiga yordam beruvchi, ilm durdonalarini to'plab, avlodlarga yetkazuvchi, o'tmishni bugun va ertangi kunga bog'lab turuvchi

ma'naviy boylikdir.

Mamlakatimizda o'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrini rag'batlantirish, ular orasida kitobxonlikni targ'ib qilish, qobiliyatli o'quvchi-yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida 10 114 ta axborot-kutubxona muassasalari mavjud bo'lib, ularda 26 mln. nusxadan ortiq kitoblar, darslik va adabiyotlar mavjud.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kitobxonlik faoliyatini barqarorlashtirish, kitob o'qishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun sinf rahbarlari tashabbusi bilan «Sinf kutubxonasi» tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. O'z-o'zini o'zlashtirish tizimi bo'yicha eng bilimdon o'quvchini «Sinf kutubxonachisi» etib tayinlash orqali, sinfdagi kitoblar soni, saqlanish holati qat'iy nazoratga olib boriladi.



«Kitob bizni birlashtiradi» nomli kitobxonlar festivalining asosiy maqsadi, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat bolalari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, mutolaa orqali Vatanni sevish, umummilliy qadriyatlarini rivojlantirishdir.

Festival davomida yurtimizdagi qator nashriyotlarda chop etilgan kitoblar ko'rgazmasi tashkil etildi. Eng faol kitobxonlar tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan Milliy madaniy markazlari qoshidagi bolalar badiiy jamoalari, Shermat Yormatov rahbarligidagi «Bulbulcha» ansambli qatnashchilarining quvnoq kuy-qo'shiqlari, sho'x raqslardan tuzilgan konsert dasturi barcha ishtirokchilarga birdek manzur bo'lib, bayram quvonchini ulashdi.

Abdurahmon TOJIXO'JAYEV, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 60-umumta'lim maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi:

– Festivalga onam bilan keldik. Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Yaqinda bolalar shoiri Tursunboy Adashboyevning kitobini o'qib chiqdim.

Malikabonu MURODILLAYEVA, Navoiy shahridagi 74-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi:

– Kitob festivali menga juda yoqdi. Tengdoshlarim ijrosidagi bayram konsertini zavqlanib tomosha qildim. Yangi do'stlar ortirdim. Ko'rgazmadan ertak kitoblar sotib oldim. Yozgi ta'tilda ularni miriqib o'qib chiqmoqchiman.

Dilorom HOTAMOVA

Yaqinda umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida

«PREZIDENT ASARLARINI O'RGANAMIZ»

ko'rik-tanloving Respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Maktab, tuman, viloyat bosqichida g'oliblikka erishgan o'quvchilar 5 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdilar. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili, Beruniy tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Maftuna Xudiyarova ham ishtirok etib, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Maftunaning bunday nufuzli bellashuvda ishtirok etishi tahririyatimiz xodimlarini ham behad quvontirdi. Chunki ayni chog'da beruniylik o'quvchilar gazetamiz bilan hamkorlik borasida ancha faol.

– Bu ko'rik-tanlov menda katta taassurot qoldirdi, – deydi Maftuna quvonch bilan. – Yangi do'stlar ortirdim. Bilmaganimni o'rgandim, bilganlarimni tengdoshlarim bilan o'rtoqlashdim. Eng asosiysi esa tadbir tufayli o'zimga bo'lgan ishonchim yanada ortdi. Shu bilan birga, ko'proq va yana ko'proq kitob o'qishim lozimligini tushundim.

Kitobning sodiq do'st, hayot yo'lidagi so'nmas mayoq ekanligi hammaga ma'lum. Mutolaa zavqini tuygan Maftunalar bor ekan, bu mayoq hech qachon so'nmaydi.

Yusuf OG'A

«Sinf kutubxonachisi» etib tayinlash orqali, sinfdagi kitoblar soni, saqlanish holati qat'iy nazoratga olib boriladi.

«Kitob bizni birlashtiradi» nomli kitobxonlar festivalining asosiy maqsadi, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat bolalari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, mutolaa orqali Vatanni sevish, umummilliy qadriyatlarini rivojlantirishdir.

Festival davomida yurtimizdagi qator nashriyotlarda chop etilgan kitoblar ko'rgazmasi tashkil etildi. Eng faol kitobxonlar tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan Milliy madaniy markazlari qoshidagi bolalar badiiy jamoalari, Shermat Yormatov rahbarligidagi «Bulbulcha» ansambli qatnashchilarining quvnoq kuy-qo'shiqlari, sho'x raqslardan tuzilgan konsert dasturi barcha ishtirokchilarga birdek manzur bo'lib, bayram quvonchini ulashdi.

Abdurahmon TOJIXO'JAYEV, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 60-umumta'lim maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi:

– Festivalga onam bilan keldik. Men kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Yaqinda bolalar shoiri Tursunboy Adashboyevning kitobini o'qib chiqdim.

Malikabonu MURODILLAYEVA, Navoiy shahridagi 74-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi:

– Kitob festivali menga juda yoqdi. Tengdoshlarim ijrosidagi bayram konsertini zavqlanib tomosha qildim. Yangi do'stlar ortirdim. Ko'rgazmadan ertak kitoblar sotib oldim. Yozgi ta'tilda ularni miriqib o'qib chiqmoqchiman.

Dilorom HOTAMOVA



Yusuf OG'A

CHIN DO'ST

Kitob – ziyo, kitob – muallim
Har sohadan beradi ta'lim.
Bizga kerak u har tob,
Haqiqiy do'st – bu kitob!

Uning har sahifasi,
Yaxshilikka chorlaydi.
Kitob o'qiganlarning,
Yuzida nur porlaydi.

Ilm istagan borki,
Qo'lga kitob olar.
Uni o'qigan sari
Zukko, bilimdon bo'lar.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa
tumanidagi 193-umumta'lim
maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi

TENGDOSHLARIMGA ILAGIM – yanada ko'proq kitob o'qing

– Chunki kitob bilimimiz boyishiga, dunyoqarashimiz kengayishiga xizmat qilib, atrofga ziyalik bilan boqishga o'rgatadi. Bir so'z bilan aytganda, kitob aql charxi, iste'dod mevasidir, – deydi Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Iroda Rahmonaliyeva.

– Men yaqinda Erkin Malikovning «Shayton vachchani»

kitabini, sevimli shoiramiz Zulfiyaxonimning she'rlarini, Muhammad Yusuf, Mahmud Toirning «Saylanma»larini o'qib chiqdim. Ularning she'riyati meni ilhomlantirdi. Shu muqaddas yurtida tug'ilganimdan faxrlandim va ushbu misralar ko'nglimdan kechdi:

Qalbimda yakka-yu, yagonam o'zing,
Tanhosan, Vatanim, bir donam o'zing.
Musaffo osmonim, tuprog'im o'zing,
O'zbekim, o'zbekim, O'zbekistonim!

Jannatday bog'laring gullagan qiyg'os,
O'lkamning har yeri go'zal beqiyos.
Vatanim hech yurtga bo'lmaydi qiyos,
O'zbekim, o'zbekim, O'zbekistonim!

Bahodir, jasurdir o'g'lonlaring ham,
Barchinoy qizlaring suluvdir biram.
Vatanim, bundayin yurt yo'qdir hech ham,
O'zbekim, o'zbekim, O'zbekistonim!



OYNI QUCHAGAN QIZ

Zebuniso Jo'rayeva Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi. Uning bolalikdan adabiyotga mehri o'zgacha. Maktabda bo'lib o'tadigan har bir tadbirda doimo bosh-qosh bo'lib kelishining sababi ham shunda. Ijodga bo'lgan cheksiz mehr uni qalam tebratib, misralarni tizishga undagan bo'lsa, ajabmas...

Bugungi kunga qadar Zebuniso o'zining «Ofobga suv tutaman» hamda «Vatan tafti qalbidam» nomli she'riy to'plamlari bilan o'quvchilar ko'nglidan joy oldi.

O'tgan yili Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida, Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokida o'tkazilgan «Biz – buyuk yurt farzandlarimiz» ko'rik-tanlovida esa «Eng yaxshi mushoirachi» nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'rin, Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «Orasta qizlar» respublika jamoalari o'rtasidagi ko'rik-tanlovda uchinchi o'rin sohibasi bo'ldi.

O'z ustida tinimsiz izlanib kelayotgan Zebuniso Jo'rayevaning she'rlari ham ko'ngillarga yaqinligi bilan e'tiborlidir.

Keling, yaxshisi, uning ijodidan siz ham bahramand bo'ling.

AXTAMQULI

ZEBUNISO MAN



Men o'zbekning Zebunisosi,
Ma'rifatning ilm-u ziyosi.
O'tmishga bir tashlangiz nigoh,
Tariximiz yo'qdir qiyosi.

Hozircha men jajji qizaloq,
Kelajagi buyuk va porloq.
Katta bo'lsam men-chi, albatta,
Elim uchun bo'lgum xizmatda.

Qalblar aro ziyo sochaman,
Yulduz bo'lib, Oyni quchaman.
El ishonchin oqlab, albatta,
Oppoq qushdek ko'kka uchaman.

OPA-SINGIL A'LOCHILAR

Jizzax viloyatining Arnasoy tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchilari Barno va Muxlisa Abdumalikovalar tirishqoq, iqtidorli opa-singillar. Ular barcha fanlardan a'lo baholarga o'qishadi.

Ayniqsa, ona tili, matematika, biologiya va ingliz tili fanlarini yaxshi o'zlashtirgan. Barno o'tgan o'quv yilida algebra va geometriya fanidan «Bilimlar bellashuvi» viloyat bosqichi hamda insholar tanlovida g'olib bo'ldi.

Opa-singillar sport borasida ham tuman va viloyat miqyosidagi bellashuvlarda qatnashib kelishadi. Barno «Umid nihollari» sport musobaqasida faol ishtiroki uchun maktabdoshlari orasida «Eng yaxshi voleybolchi»,

Muxlisa deb nom qozondi. Singlisi Muxlisa ham opasi izidan borib, matematika fanidan «Bilimlar bellashuvi» viloyat bosqichi g'olibi bo'ldi. U viloyat ochiq tumirida shaxmat bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

Opaning orzusi ingliz tilini mukammal o'rganib, tarjimon bo'lish. Singilning adabiyotga ixlosi baland, kelajakda ustozlari kabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lishni orzu qiladi.

Nomoz QARSHIYEV

QALB KALITI

Kuni kecha Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan 78-umumta'lim maktabida bolalarning sevimli shoirasi Kavsar Turdiyeva bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.



Tadbirda bolajonlar uchun o'zbek xalq ertagi asosida yaratilgan «Zumrad va Qimmat» multfilmi namoyish etildi. O'quvchilar shoir qalamiga mansub she'rlardan yod aytib, o'zlarini qiziqirgan savollarga javob oldilar. Tadbir so'ngida shoir o'z kitoblaridan maktab kutubxonasiga sovg'a qildi.

Shuningdek, maktab o'quvchilariga homiyilar tomonidan 200dan ziyod kitoblar sovg'a qilingani bizni yanada quvontirib yubordi.

Gulchehra KARIMOVA

Minnatdormiz Sizdan, muallim!

Has yo'lida kimi senga bir harf o'shtirish ranj ila,
Aylabniaki bo'lmas ado oning hasin ylz ganj ila.

Alisher NAVOIY

USTOZLIK BAXTI

Ustoz haqida gap ketganda, har birimiz ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'ygan davrimiz, birinchi o'qituvchimizni mehr ila eslaymiz.



Hayotda nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini tushuntirgan,

– Barchamiz ustozimizni juda yaxshi ko'ramiz. Ular mehribon, talabchan. Bilim va odobdan saboq berdilar. Uy vazifalarini o'z vaqtda bajarib kelganimizda maqtaydilar. Byron-biyrone javob berishimizni yaxshi ko'radilar. Yo'zuvimizdagi xatolarni topishga undab, savol beradilar. Sport bilan shug'ullanishimizni, serharakat bo'lishimizni aytadilar. Har bir ishda ularning o'g'itlariga amal qilaman, – deydi Shahriyor.

– Ustozim juda mehribon. Baland ovoza urishganlarini eslolmayman. Biror ishda xato qilsak, yaxshi so'zlar bilan tushuntiradilar. Badiiy adabiyot o'qiganlarni qadrlab, kitoblar sovg'a qilishni yoqtiradilar. Ustozim xursand bo'lishlari uchun ko'proq «5»

baho olishga harakat qilaman. Shahzoda opaga havas qilib, o'qituvchi bo'laman, degan dugonalarning ham talaygina, – deydi havas bilan Mohichehra.

Qo'ng'iroq chalindi. Barcha o'quvchilar sinfxonalarga kirib ketishdi. Maktab yo'lga sokinlikka cho'mgandek, go'yo... Birgina eshigi qiya ochilgan xonadagina bolalarning chug'ur-chug'uri tinmaydi. Jajji o'g'il-qizlarning ustoziga aytadigan gaplarining adog'i ko'rinmaydi. Shu damda Shahzoda opa dunyodagi eng baxtli inson ekanligini yana bir bor his qildi.

kamolga yetishimiz uchun jon kuydirgan ham u.

Bugun poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 79-umumta'lim maktabining jonkuyar ustozlaridan biri Shahzoda To'laganova o'zi rahbarlik qilgan 4-«V» sinf o'quvchilarini yuqori sinfga kuzatyapti.

– Sinfimdagi 25 nafar o'quvchining har biri turli dunyoqarashga ega. O'tgan yillar davomida shogirdlarimni alohida shaxs sifatida kashf etdim, ular hayotimning mazmuniga aylanib ulgurishdi.

Ana, bolajonlar bir-biriga so'z bermay chug'urilashganicha ustozlari atrofida parvona.

Nodira NAZAROVA

NUFUZLI KLINIKALARDA DAVOLANISHADI

«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi uzoq yillardan beri Koreya Respublikasining bir qator xalqaro tashkilotlari va universitetlari bilan hamkorlikda keng ko'lamda faoliyat olib bormoqda.



2014-yillardagi hamkorligi davomida Cha Universiteti qoshidagi Pundan

Fondning «Junior Chamber International – JSI» xalqaro yoshlar tashkiloti bilan 2010–2014-yillardagi hamkorligi davomida Cha gospitalida o'zbekistonlik bolalar jarrohlik amaliyoti bilan sog'lomlashtirildi.


Kuni kecha Toshkent Pediatric instituti klinikasida mazkur gospitalning 12 nafar shifokor-mutaxassislaridan iborat delegatsiya a'zolari yurtimizda tug'ma yurak nuqsoni tashxisi qo'yilgan bemor bolalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi. Tibbiy ko'rik natijasiga ko'ra ayrim bolalar Koreyaning nufuzli klinikalarida davolanish uchun yo'llanma olishadi.



Muzaffar AHMEDOV

«ONAJONIM TABIAT» insholar va rasmlar ko'rik-tanlovi yakunlandi

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, yil boshida gazetamiz sahifalarida «Onajonim tabiat» an'anaviy insholar va rasmlar tanlovini e'lon qilgan edik. O'tgan oylar mobaynida tanlov uchun yuzdan ziyod ijodiy ishlar kelib tushdi. O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi, O'zbekiston ekologik harakati hamda «Tong yulduzi» tahririyati xodimlaridan iborat hakamlar hay'ati tomonidan quyidagi o'quvchilar g'olib deb topildi:



Insholar yo'nalishi bo'yicha g'oliblar:

1-o'rin. Anvarjon ABDULLAYEV, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi. «Onajonim tabiat» nomli inshosi uchun.

2-o'rin. Mahfuza G'OZIXONOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 2-IDUM 5-«A» sinf o'quvchisi. «Onajonim tabiat» nomli inshosi uchun.

3-o'rin. Azizabonu HAYDAROVA, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi. «Tabiat go'zalligi – ko'ngillarning sofligi» nomli inshosi uchun.

Rag'batlantiruvchi mukofotlar:

Ilhomjon TOJIYEV, Toshkent shahri, Uchtepa tumanidagi 62-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf

o'quvchisi. «Onajonim tabiat» nomli inshosi uchun.

Otabek BAKIROV, Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi. «Ona tabiat quchog'ida» nomli inshosi uchun.

Rasmlar yo'nalishi bo'yicha g'oliblar:

1-o'rin. Nigina TURG'UNOVA, Toshkent shahri, Chilonzor tumanidagi 195-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi.

2-o'rin. Madina ABDISALOMOVA, Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 37-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

3-o'rin. Feruza OTAQULOVA, Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi.

Eng yosh musavvir.

Sarvaroy NE'MATULLAYEVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 3-«G» sinf o'quvchisi.



Rag'batlantiruvchi mukofotlar:

Oydin ULUG'OVA, Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi.

Dilrabo RO'ZIMURODOVA, Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi.

G'olib va sovrindorlar joriy yilning 4-iyun kuni soat 10.00da poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida taqdirlanishadi.

Telefonlar: (+99890) 948-54-95, (+99893) 560-38-63, (99871) 244-63-08.

Lesson 37

«QUESTION-ANSWER» GAME

(«Savol-javob» o'yini)


Which is my hamburger? No, she does not. She lives in England.
Has he got a car? I work in Tashkent.
Does she live in Tashkent? It is, this one here.
Where do you work? He's Uzbek, I think.
What nationality is Aziz? No, he has not.

Nozima YO'LDOSHEVA

NAME THE PICTURES

(Suratlarni nomlang)

Do you know the answer of these things in the picture.



Umida UMAROVA

LET'S FIND TOGETHER!

(Keling, birga topamiz!)

Dear children can you solve this rebus? You should find the names of these things and put letters by those numbers then you may see a new word.



Shahnoza KARIMOVA


10 QUALITY AND PROPERTY

(10 fazilat – 10 xislat)

- Honesty
- Regularity
- Disciplinary
- Cleanliness
- Diligent
- Sincerity
- Responsibility
- Nobility
- Politeness
- Courteousness

THE LAST DAY OF SCHOOL

Mushtariy MURODJONOVA,
O'zDJTU qoshidagi 1-akademik litseyi o'quvchisi



You are my sun, dear school,
And I don't want to go out.
Just my desire to get knowledge
But the bell began to ring.

Getting your education,
My soul is white as pigeon.
Eyes filled with tears,
It is the last day of school.

RIDDLES

(Topishmoqlar)

The sea is my mother,
I have million brothers,
And I disappear when I reach
the land.



Who changes clothes four
times within one year.



Dinora SHAKIROVA tayyorladi

NIGOHIDA OLAM GULLAYDI

Qo'lga ilk bor qalam olgan ijodkor, so'zni nimadan boshlashini bilmay borliqqa hayratlanib nigoh tashlasa, uning ko'zlarida olam ming xil tusda tovlanadi. She'r yozishning payti kelganini ilg'agan holda satrlarga zeb berishga tushsangiz, albatta, yozganlaringiz rangli chiqadi. Tushkun

holatda bitganlaringizda esa ohang bo'lmaydi. Demoqchi bo'lganimiz, ijodkorning nigohida olam gullab turishi kerak. Bugungi sahifamiz mehmoni ana shunday sevinchi ichiga sig'magan, osmonlarga uchishni ko'zlab, qog'oz qoralayotgan mitti qalb egalaridir. Biz ularga omad yor bo'lishini tilaymiz!

Mo'min AVAZOV

LOQAYDLIKDAN QO'RQAMAN

Onajon, men qo'rqmayman,
Darsni o'zlashtirishdan.
Noumid bo'lolmaysiz,
Biron buyurgan ishdan.

Har qandayin ishlarni,
Buyuraver – qilaman.
O'zim uchun bu ishni,
Farz-u qarz deb bilaman.

Mehnat bilan chiniqib,
Qo'lingga gul tutaman.
Har kun ro'zg'or ishlarin,
Dasturga kiritaman.

Ish buyurgin, onajon,
Qo'l beminnat uzalar.
Ko'z, til, teran fikrlar,
Ko'ngil bo'lib yuzlanar.

Isiriq sol, ko'zikmay,
Men – otashli cho'g'dayman.
Hayotda qanday dahshat –
Loqaydlikdan qo'rqaman.

MAKTABIM

Bolaligim kechgan aziz maskanim,
Cheksiz ziyo nuri portlagan uyim.
Ulg'aydim bag'ringda, ko'rmasdan hech g'am,
Tabarruk poyingga qilaman ta'zim.



Sen ilm koshonam, men bo'ldim tolib,
Barcha sinovlarda o'zimman g'olib,
Yuksak cho'qqilarga qilaman parvoz,
Minnatdorman, sizdan, ey, aziz Ustozi!

Sevinch MAHAMMADJONOVA,

Toshkent pedagogika kollejinining 1-bosqich o'quvchisi

AXTAMQULI

SHE'RIYATNI SEVAMAN



Dilimdagi so'zimni,
Cho'g'ga urib o'zimni.
Iftixorim, baxtimni,
Sen-la bayon qilaman,
She'riyatni sevaman.

Yurtimizning shodligin,
Go'zallik har onligin.
Vatan bepoyonligin,
Senda izhor qilaman,
She'riyatni sevaman.

Qalbidagi quvonchim,
Har narsaga ishonchim.
Labimdagi sevinchim,
Qog'ozga tushiraman,
She'riyatni sevaman.

Yuragim gullarini,
Ko'zimning nurlarini.
Qalbinning kuylarini,
Senga in'om etaman,
She'riyatni sevaman.

Zulayho RAHMATOVA,
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi
64-umumta'lim maktabining
5-«A» sinf o'quvchisi

GOL...

To'p-to'p... to'p...to'p,
Futbolchilar chopar xo'p.
Darvozabon shoshib qoldi,
Ishqibozlar jo'shib qoldi.
Qarang, yana gol bo'ldi,
Hisob: «Bir-u nol» bo'ldi.



Parvina XOLMAMATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
63-umumta'lim maktabining 3- «D» sinf o'quvchisi

OILAMIZ SEVINCHI

Dadajonim erkasi,
Oyijonim sevinchi.
Oilaning kenjasi,
Singiljonim – Jamila.

Sen mening ishonchimsan,
Erkatoy, quvonchimsan.
Doimo suyanchimsan,
Ukajonim – Suhrobjon.

Uchalamiz bo'lib jam,
Bilim olaylik har dam.
Oilamiz mustahkam,
Bizga ishonsin Vatan. 21-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi



Noilaxon AKBAROVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi

MAQTANCHOQ TULKI



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qalin o'rmonzorda hayvonlar ahil-inoq yashashar ekan. Ular orasida tulki o'zining ayyorligi bilan nom chiqaribdi. Tulkivoy ayyorlikdan tashqari maqtanchoq ham bo'lib, atrofidagilarga aql o'rgataverar, hayvonlar uning mahmadonaligidan bezor ekan. Kunlarning birida u katta yo'l yoqasida Bo'ri bilan uchrashib qolibdi. Bo'ri qo'lida endigina tutgan o'ljasini paqqos tushirmoq ilinjida ini tomon shoshib borayotgan edi. Tulkivoy har doimgidek yovvoyi o'rdakni qanday pishirishni o'rgata boshlabdi. Bo'ri uning gaplariga berilib, og'zidan so'lagi oqqanacha, bexos qo'lidagi o'ljasini qo'yib yuboribdi. Ozodlikka chiqqan o'rdak potirlab

ko'kka parvoz qilibdi. Mahmadona sabab, Bo'ri o'sha kuni och qolibdi.

Kunlar ketidan oylar o'tibdi. O'rmondagi barcha jonzotlar Tulkivoyni ko'rganda, undan qochadigan bo'lishibdi. Do'stlaridan ajrab qolgan Tulki yolg'izlikdan zerika boshlabdi. Shunda u maslahat so'rab, Ayiqning huzuriga boribdi. Ayiq unga ayyorlik, sergaplik va maqtanchoqlikning oqibati kishini yolg'izlikka mahkum etishini tushuntiribdi. Bo'lib o'tgan ishdan xulosa chiqargan Tulkivoy goh-gohida ayyorligini qilsa-da, lekin ko'p gapirmaydigan va maqtanmaydigan bo'libdi.

Sevinch PARDABOYEVA,
Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi 1-umumta'lim maktabining
5-«B» sinf o'quvchisi

Yaqinda bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan 300 nafarga yaqin polvonlar belbog'li kurash va belbog'li kurashning erkin usuli bo'yicha o'zaro kuch sinashishdi.

KUCHLILAR QARSHIDA ANIQLANDI




Joriy yilning 16–17-may kunlari Qarshi shahridagi «Geolog» sport majmuasida o'tkazilgan belbog'li kurash bo'yicha 1995–1996-yillarda tug'ilgan o'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionati keskin bellashuvlarga boy bo'ldi.

– Hozirda viloyatimizda 600 nafarga yaqin yoshlar belbog'li kurash bilan shug'ullanishmoqda, – deydi mazkur sport turi bo'yicha viloyat federatsiyasi raisi Farhod Jumanov. – Belbog'li kurash bo'yicha asosiy mashg'ulotlar Chiroqchi tumanidagi 1-BO'SMda bo'lib, Qarshi shahri, Kasbi, Koson, Shahrisabz kabi tumanlarimizdan yoshlar jalb etiladi.

Bahriddin Yormatov, Shermuhammad Shoymurodov, Ilyos Ahmedov, Jo'raxon Abdurahmonov singari tajribali murabbiylarimizning jonkuyarligi sabab, bugun turli bellashuvlarda medallarimiz soni oshib bormoqda. Bu ko'rsatkichlar bilan chegaralanib qolmoqchi emasmiz. Yutuqlar salmog'ini yanada oshirishga imkonimiz yetarli.

Murosasiz kechgan bellashuvlarni kuzatar ekanmiz, qalbmiz iftixorga to'ldi.

Shoh MUHAMMAD



POLVON

haqida zamonaviy ertak

Bir bor ekan... Qadim o'tgan zamondamas, shu o'zimning dorilamonda bir polvon bola bor ekan. Uni bunday atashimga sabab, G'afur ota va Nafisa aya jondan aziz nabiralari Temurni «polvon» deb chaqirishar ekan. Hozirda u Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi 48-umumta'lim maktabining 5-sinfida ta'lim olmoqda. Barcha fanlarni a'lo o'zlashtirish barobarida yunon-rum kurashi bilan shug'ullanishga ham ulguraypti.

Yosh sportchi har gal musobaqa oldidan bobosining duosini olar, bu esa polvonga zavq bag'ishlar ekan. Temurning medallar shodasi har bir musobaqada bittaga ko'payaveribdi. «Sog'lom bola yili» munosabati bilan 30 kg. vazn toifasida 1-o'rinni egallagan polvon 2000–2005-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi tuman sport maktabi ochiq tumirida ham 50 kg. vaznda birinchi bo'libdi. Keyinchalik, jismoniy tarbiya murabbiyi Tursunali Anorboyev xotirasiga bag'ishlangan BO'SM ochiq birinчилиги hamda «Keksalarni e'zozlash yili» munosabati bilan 2003–2005-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi Toshkent viloyati chempionatida 2-o'rinni egallabdi.

Temur Abilxairov «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan mahalladoshi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Tursunboy ota Atamatov xotirasiga bag'ishlangan tumirida 54 kg. vaznda 1 o'rin sohibi bo'libdi.

Polvon shu kunlarda yozgi imtihon sinovlariga tayyorgarlik ko'rayotganmish. Dam sport mashg'ulotlari, dam yakuniy chorak sinovlari bilan mashg'ul kurashchi «Sog'lom tanda – sog' aql» maqoliga qat'iy amal qiladi, chog'!

Nozima JAVHAROVA

AQL QI MNASTIKASI USTASI



Shohijahon o'tgan yili «Kamolot» shaxmat taxtasi» an'anaviy sport musobaqasining viloyat bosqichida 9–12 yoshli o'smirlar o'rtasida 9,5 ochko bilan 2-o'rinni egalladi. Shuningdek, «Sog'lom bola yili» munosabati bilan poytaxtda o'tkazilgan 10 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va qizlar o'rtasida shaxmat bo'yicha Respublika birinчилигиda 1-o'rinni egalladi va O'zbekiston Shaxmat Federatsiyasi a'zoligiga qabul qilindi. Sportchi o'tgan yilning yanvarida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Respublika birinчилигиda jahon chempioni Nodirbek Abdusattorov bilan ham 150 marotaba yurish bilan o'yin o'tkazdi. U bundan faxrlanadi.

– Shogirdim joriy yilda Navoiy viloyatida o'tkazilgan «Kamolot» shaxmat taxtasi» sport musobaqasida 1-o'rinni egalladi. Yosh bo'lsa-da, maqsad sari intilish nimaligini tushunadi. Chempion bo'lish siri ham shunda bo'lsa kerak, – deydi murabbiy Najmiddin Umarov.

Shohijahon Murodaliyev kelgusida jahon chempioni bo'lib, yurtimiz sharafini xalqaro maydonlarda himoya qilishiga niyat qilib qolamiz.

Sardorbek INOMIDDINOV

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi Shohijahon Murodaliyev ikkinchi sinfdaligida ilk bor tuman chempioni bo'ldi. Yosh sportchi musobaqaning viloyat bosqichida dastlabki turlardan o'q yetakchilar safida borib, 13 imkoniyatdan 10,5 ochko to'plab, 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Jizzax viloyatining Paxtakor tumanidagi 4-umumta'lim maktabi sport zalida tuman XTMFMT va TE bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlab voleybol bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Unda 1-, 2-, 4-, 8-, 9-, 11-, 12-, 13-, 14- hamda 31-umumta'lim maktablari o'quvchilaridan iborat 100 nafar o'smirlar va 70 nafar o'quvchi qizlar g'oliblik uchun bahs olib borishdi.

2- VA 13-UMUMTA'LIM MAKTABLARI BIRINCHI!



Yakunida o'smirlar jamoalari o'rtasida 1 o'rin 2-umumta'lim maktabiga, II o'rin 9-umumta'lim maktabi jamoasiga, 1-umumta'lim maktabi o'smirlariga III o'rin nasib etdi. Qizlar jamoalari o'rtasida 13-umumta'lim maktabi I o'rinni qo'lga kiritdi. 9-umumta'lim maktabi II, 2-umumta'lim maktabi jamoasi III o'ringa loyiq, deb topildi. G'oliblar viloyat Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, tuman Xalq ta'limi bo'limi, «Kamolot» YOIH tuman Kengashi hamda tuman madaniyat va sport ishlari bo'limi tomonidan munosib taqdirlandi.

Shukrulla G'ULOM

ORZULARNING RO'YOBI

Matematika fanini butun sinfimiz bilan yaxshi ko'ramiz. Baholarimiz ham a'lo. Ustozimiz Maqsudaxon opa bizga juda mehribon va shirinso'z. Darslarni zamonaviy usulda olib boradilar. Ustozning sa'y-harakatlari bilan qator yutuqlarga erishyapmiz.

Yaqinda maktabimizning 8-sinf o'quvchisi Gulchiroy Sahobiddinova «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 3-o'rinni egallab, ustozimizning ishonchini oqladi. Gulchiroy kelajakda bundan ham katta yutuqlarga erishmoqchi. Uning kelgusidagi orzulari juda ko'p...

Ro'zixon G'AYRATOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
34-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

Huzmatli tahziziyat
a'zolazi!

Bu maqolani sinfdoshimiz Ro'zixon gazetangizda chiqarish niyatida edi. Ammo uning bu orzusi amalga oshmadi, chunki u bugun ozamizda yo'q. Shuning uchun ham uning orzusi ushalishini istaymiz. Bu maqola Ro'zixonning xotitasiga bag'ishlanadi. Huzmat bilan: Beshariq tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchilazi.

QIZIQ KITOB EKAN-A!

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 169-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Sherali PARMONQULOV o'quvchilari Oysha, Madiha va Zebo bilan mutolaa san'ati xususida suhbatlashmoqda.




«Ketma, bahor!»

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchilari Zarnigor va Ozoda G'ANIYEVALAR a'lo o'qish bilan birga rasm chizishga ham qiziqishadi.

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Aziz bolajonlar, savollarga to'g'ri javob topsangiz, rangli kataklar yordamida yana bir so'zni bilib olasiz.

1. Meva nomi.
2. Bo'yni uzun jonivor.
3. Doimo parvozda.
4. Sabzavot turi.
5. Dam olish maskani.
6. Eshikning kattasi.
7. Siz yoqtirgan shirinlik.



Iqbol MALIKOVA tayyorladi

CHOPAQ'ON XONDA

Ota o'g'lidan so'zadi:

- Bugun maktabda qanday darslar o'tildi?
 - Matematika, adabiyot, jismoniy tarbiya, - deb javob berdi bola.
 - Jismoniy tarbiyada nima qildinglar?
 - Kim tez yugurish musobaqasini o'tkazdik.
 - Sen nechanchi o'rinni egallading?
 - Beshinchi o'rinni.
- Javobni eshitgan otaning yuzi yozishdi. Sinfdan 25-30 nafar o'quvchi bo'lsa, beshinchi o'rinni egallagan yomon emas. Shunda ham xursand bo'lganicha anig'ini bilmoqchi bo'ldi:
- O'g'lim, o'zi nechta o'quvchi yugurdinglar?
 - Beshta edik, - javob berdi o'g'li.

Muzaffar AHMEDOV

TOPISHMOQLAR

Besh qalin o'rtoq, Yashaydi inoq.



Insonga eng yaqin do'st, U bo'lsa yo'q kam-u ko'st. So'zlarim ayla xitob, Bilim koni bu—



Yo'q oyog'i, lek yurar, Qjmirilamas, tik turar. Top-chi, javobin Hikmat, Uning nomidir...



TEZ AYTISHLAR

Tohirning to'pi tomga tushdi.



Bunyod beshta buzog'ini bog'da boqdi.

Guli go'zal gullardan guldasta yasadi.



Bog'bon Botirga bodom bilan behi berdi.

E'zoza ALIMOVA, Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 2-akademik litseyi o'quvchisi

ZUBAYDA olgan suratlari

8

25-may 2015